



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



CONFERENCES.UZ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



DANG‘ARA TUMANI TABIATI VA UNING TOPONIMIKASI

Muhammedova Zilolaxon Qodirali qizi

magistr

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: muhammedovazilolaxon91@gmail.com

Ergasheva Yulduz Xamroqul qizi

geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: unusual_girl93@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dang‘ara tumani nomining kelib chiqishi, uning tabiati, iqlimi hamda o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida umumiy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Dang‘ara, “Parg‘ana”, “Prag‘ana”, relyef, iqlim, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

NATURE OF DANGARA DISTRICT AND ITS TOPONYMICS

Muhammedova Zilolaxon

Ergasheva Yulduz

Annotation: This article provides general information about the origin of the name of Dangara district, its nature, climate and flora and fauna..

Key words: Dangara, "Pargana", "Pragana", relief, climate, flora and fauna.

Dang‘ara tumani – Farg‘ona viloyatining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan tuman hisoblanadi. 1939-yil 10 fevralda tashkil etilgan bo‘lib (1962-yil 24-dekabrda Pop tumani bilan birlashtirilgan. 1970-yil 7-dekabrda qayta tuzilgan). Dang‘ara tumani viloyatning Buvayda, Uchko‘prik, O‘zbekiston, Furqat tumanlari, Qo‘qon shahri, Namangan viloyatining Pop tumani, Tojikiston Respublikasining Asht tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,45 ming km², aholisi esa 160,9 ming kishi (2016). Dang‘ara tumanida 1 ta shaharcha va 49 ta mahalla fuqarolari yig‘ini mavjud.[1]

“Farg‘ona” so‘zi ilk o‘rta asrlarda so‘g‘d yozuvi bilan “Parg‘ana”, “Prag‘ana” shaklida yozilganligi ma’lum. Bu so‘z hind-sanskrit tilida “kichik viloyat”, “atrofi berk tog‘li joy” degan ma’nomlarni bildiradi. Miloddan avvalgi II asrlarda Farg‘ona “Dovon” deb atalgan bo‘lsa, ilk o‘rta asrlarda “Bohan”, “Bohanna” nomlari bilan tilga olinadi.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi odam yashagan manzilgoh ham aynan Farg‘ona vodiysidan topilgan.

Farg‘ona xalqlari turmushida Buyuk Ipak yo‘lining ochilishi katta ahamiyat kasb etgan. Bronza tangalar, ipak matolar, temir qurollar va boshqalarning paydo bo‘lishi bevosita shu yo‘l bilan bog‘liq.

Dang‘ara tumani hududidan Buyuk Ipak yo‘lining ikki tarmog‘i o‘tgan. Birinchisi Xo‘jand-Beshariq, Naymancha-Qo‘qon yo‘nalishi, ikkinchisi Toshkent bilan Farg‘ona vodiysini bir-biriga bog‘laydigan eng qisqa yo‘l – Qurama tizmalaridagi Kandır dovoni.

“Dang‘ara” so‘zining etimologiyasi haqida turli talqinlar mavjud. Xalq vakillari talqinicha, bu so‘z “dan” (don) va “g‘ara” (g‘aram) so‘zlaridan hosil bo‘lgan, yani don, g‘allaning g‘aramlanishi e‘tiborga olingan.

Ba‘zi olimlarning fikriga ko‘ra, mazkur toponim pahlaviy tilidagi “dan” va “g‘ar” shaklidagi ikki so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, “ma‘rifat joyi”, “ilm joyi”, “vatani muazimin”, “ulug‘larni asrovchi”, “duoxonlar vatani” kabi ma‘nolarni anglatrsa, yana bir talqinda Dang‘ara – dana (dono, bilimli kishi), qara > g‘ara – “dono, bilimli odamga qara”, yani dana+g‘a+qara > danag‘a qara > dang‘ara mazmunlarida shakllangani qayd etiladi.

Dang‘ara tumani shimol tomondan 17,5 km masofada Sirdaryo orqali Tojikiston Respublikasining Asht tumani bilan, shimoli-sharqdan Namangan viloyati Pop tumani bilan, sharqdan Uchko‘prik tumani, janub tomonidan Qo‘qon shahri bilan, g‘arb tomondan Furqat tumani bilan chegaradosh.

Dang‘ara tumani relyefi, asosan, tekislikdan iborat. Iqlimi kontinental. Yozi issiq, qishi bir oz yumshoq. Vegetatsiya davri 220 kun. Yiliga o‘rtacha 110 mm yog‘in yog‘adi. Bahor va kuzda kuchli Qo‘qon shamoli esadi. Tuman hududidan Sirdaryo oqib o‘tadi. Shuningdek, Naymansoy, Oqtepasoy, Urganji ariqlari bor. Tuprog‘i o‘tloq, qumli o‘tloq va sho‘rxoklardan iborat. Qumliklarda saksovul, qandim, yulg‘in; pastqamliliklarda yantoq, shuvoq, oqbosh; sho‘rxoklarda qorabaroq, baliqko‘z, to‘rg‘ayo‘t; Sirdaryo sohillarida turang‘il, tol, ching‘il va boshqa o‘simliklar o‘sadi. Yovvoyi hayvonlardan chiyabo‘ri, tulki, bo‘ri, to‘qay mushugi; qushlardan hind maynasi, to‘rg‘ay, o‘rdak, qashqaldoq, qirg‘ovullar ko‘pligi jihatidan vodiya tumanga teng keladigan hudud topilmaydi.

Tumanda avvallari, asosan, paxta, don yetishtirilgan bo‘lsa, keyingi yillarda o‘rmonchilik, pillachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, asalarichilik ham rivojlanib bormoqda.

Tumanning umumiy ekin yerlari maydoni 20385 gektarga teng bo‘lib, bundan 18062 gektari qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan ekin yerlari, 2323 gektari aholi tomorqa yerlarini tashkil etadi.

Omilkor, iymonli va fidoyi mirishkorlar yurti bo‘lgan Dang‘ara tumanida 2019-yida aholi tomorqa yerlarining 814 gektarida kartoshka, 986 gektarida pomidor, 93 gektarida piyoz, 82 gektarida bodring, 49 gektarida poliz ekinlari, 75 gektarida sarimsoq piyoz va ko‘katlar, 124 gektarida achchiq va bulg‘or qalampiri, 24 gektarida limon, 76 gektarida boshqa ekinlar yetishtirildi.

Chorvachilik va parrandachilik sohasida ham bir qator yutuqlarga erishildi. Joriy yilda 4230 ming bosh qoramol, 68952 ming bosh parranda bo‘lib, yil davomida 25485 ming dona tuxum, 100 tonna asal, baliqchilikka ixtisoslashgan 5 ta fermer xo‘jaligida yiliga 70 tonnadan ziyod baliq mahsulatlari xalqimiz dasturxoniga tuhfa etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Dang‘ara tumani" O‘zME. D-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Z. Qobilova DANG‘ARA: ISTIQLOLDAN ISTIQBOLGA: publistik nashr. Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2019.-192 bet.
3. www.wikipediya.org